

YOSHLARDA VATAN HIMYOYASIGA BO'LGAN MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISH

Ro'zmetov Doniyor

Urganch davlat pedagogika inistituti Filiologiya va tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'naliш talabasi

E-mail: rozmetovdoniyor976@gmail.com

Samonova Shaxlo

Ilmiy rahbar:

ANNOTATSIYA

Yoshlar orasida vatanga bo'lgan mehr va burchlariga ma'suliyat bilan qarashlarni har qanday holatda ham vatan oldidagi burchlari uchun sodiq, yetuk bilim egalari vatanparvar yoshlarni kelajak avlod orasida shakllantirish yoshlarni milliy mentolitedimizni uzoqlashmagan holda ma'naviy taraflama tarbiyalash.

Kalit so'zlar: Respublikamiz Qurolli kuchlari, Vatanga mehr-muhabat, qonunga hurmat ruhi, yurt tinchligi, xalqimiz tinchligi.

ABSTRACT

Among young people, love for the motherland and responsibility for their duties loyal to his duties to the country in any case, forming patriotic young people with advanced knowledge among the next generation, educating young people in a spiritual direction without alienating our national mentholited.

Keywords: The Armed Forces of our Republic, love for the Motherland, respect for the law, peace of the country, peace of our people.

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go'shordan, insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog'ini ko'ziga to'tiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanimiz tuprog'idagi har bir qarich yer muqaddas hisoblanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etganlar, qayerga borsa ham vatan yodi bilan nafas olganlar. Yurtimiz insonlari vatanimizdan tashqarida baxt-saodatga erisha olmaydilar. Har bir insonning o'z Vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makondir. Vatanga mehr-muhabati bo'limgan insonni ota-onasiga mehri bor desalar

bunga ishonib bo‘lmaydi. Ona vatanimizga sadoqatli bo‘lish, ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma’naviyatdan baxramandlik, o‘ziga ishonch, kelajak oldida ma’sullik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Ta’lim muassasalarida “Vatan himoyachilar kuni” tadbirlarini o‘tkazishning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilardan Respublikamiz Qurolli kuchlarining salohiyati va obro‘sni, mamlakatimiz mustaqilligi hamda xududiy yaxlitligi, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini keng yoritib berish, ularni o‘z vataniga sodiq va fidoiy insonlar etib tarbiyalash barcha ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda yoshlarda vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimioy hamkorlik kabi milliy g‘oyalarning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, bu ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish an’anaga aylanib bormoqda. Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini tantanali o‘tkazish ham vatanparvarlik tizimiga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, bugungi kunda har bir yigit qizning orzusi va burchiga aylanib bormoqda.

Bu borada, adliya organlari tomonidan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qonunga hurmat ruhini shakllantirish, yoshlarni vatanga sadoqatli, mard va jasur avlodlar sifatida kamol topishlarini ta’minalash maqsadida muntazam ravishda joylarda aholi va yoshlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot tadbirlari olib borilmoqda.

Yoshlarimiz mustaqil vatanimizning posbonlaridir. Biz navqiron avlod vakillarini barkamol, yetuk kishilar qilib voyaga yetkazsak, ularning har birida or-nomus, milliy g‘ururni izchil shakllantirib borsak, vatanimiz shunchalik qudratli davlatga aylanadi. Vatanni, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilish, vatanparvar bo‘lish, sodiqlik, fidoyilik tuyg‘ularini xis etib yashayotgan yoshlarimiz mustaqil yurtimizning kelajagidir. Biz qo‘lga kiritgan bunday yutuqlar bilan muqaddas yurtimizda yashayotgan, millati, dini va e’tiqodidan qat’i nazar, har bir inson haqli ravishda faxrlansa arziyi.

Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilgan sana va Vatan himoyachilarini ulug‘lab o‘tkazilayotgan harbiy vatanparvarlik tadbirlari kursantlarda o‘zgacha taassurot qoldirayotganini aytish joiz.

Xususan, “Kim Vatanga sodiq bo‘lsa, mendirman o‘sha!”, “Men Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur kabi buyuk sarkardalar avlodiman” kabi tadbirlar bo‘lajak yurt himoyachilarida milliy g‘ururni uyg‘otish, Vatanga muhabbatni ziyoda etishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. “Mard, jasur va sadoqatli vatanparvarlarni tarbiyalash – maktabdan boshlanadi!” shiori ostida maktablarda o‘tkazilgan targ‘ibot-tashviqot

tadbirlari esa, endigina o'sib kelayotgan, kasb tanlash orzusida bo'lgan o'quvchi yoshlarda Vatan himoyasi bilan bog'liq kasblarga qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik sifatlari bilan yo'g'rilgan tafakkurga, dunyoqarashga ega yoshlar hech qachon o'z vataniga, oilasiga, do'stiga xiyonat qilmaydi. Ayniqsa, egnida davlat razmlari tushirilgan forma kiyib, vatanga sidqidildan xizmat qilishga bel bog'lagan yosh kursantlar uchun adabiyotga oshno tutinish, millatimiz faxri va g'ururi bo'lgan, yurt istiqolli va istiqboli uchun ne-ne zahmatlar chekib, istibdodga qarshi kurashning mafkuraviy qalqonini shakllantirish yo'lida ijod qilgan mutafakkirlarimiz asarlarini qunt bilan o'rganish va ulardagi g'oya va mazmunni yuraklariga jo etish favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, Prezidentimiz rahnamoligida boshlangan mana shunday ezgulik, ma'rifat va ma'naviyat karvonni yoshlarimiz ongu-shuurini o'zgartirib, haqiqiy yurt fidoyisi, vatan himoyachisi bo'lishdek manzilga yetaklashiga ishonchimiz komil.

Biz yoshlar vatan uchun sodiq, ma'nnaviy taraflama yetuk yetishgan ison bo'lib yetishib vatanimiz, xalqimizga farx bilan xizmat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. @himoyachilar sayti
2. @yuz.uz.com sayti